

YANGI O'ZBEKISTONDAGI EKOLOGIK MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: SUV TANQISLIGI, HAVONING IFLOSLANISHI VA OROL FOJEASI.

Annayeva Zarifa Musurmankulovna

Termiz davlat universiteti, Jahon tarixi kafedrası,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

zarifaannaeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17760203>

Annotatsiya. Maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, suv tanqisligi, havoning ifloslanishi, Orolbo'yi fojiasi va iqlim o'zgarishi kabi dolzarb ekologik muammolarning zamirida yotgan omillar tahlil qilingan. Suv resurslaridan samarasiz foydalanish, sanoat va transportning atmosfera ifloslanishiga qo'shayotgan hisssasi, shuningdek, Orolbo'yi ekologik inqirozi oqibatlarini yumshatish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati yoritilgan. Shuningdek, ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lida Yangi O'zbekistonning milliy strategiyalari, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish choralari va xalqaro hamkorlik tashabbuslari ilmiy asosda baholangan.

Kalit so'zlar: Ekologiya, Yangi O'zbekiston, suv tanqisligi, iqlim o'zgarishi, havoning ifloslanishi, Orol fojiasi, ekologik xavfsizlik, "yashil iqtisodiyot", ekologik siyosat, barqaror rivojlanish, suv tejovchi texnologiyalar, atmosfera ifloslanishi, ekologik monitoring.

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: ВОДНЫЙ ДЕФИЦИТ, ЗАГРЯЗНЕНИЕ ВОЗДУХА И АРАЛЬСКАЯ ТРАГЕДИЯ

Аннотация. В статье анализируются вопросы обеспечения экологической безопасности в условиях Нового Узбекистана, включая дефицит водных ресурсов, загрязнение атмосферного воздуха, экологический кризис Приаралья и последствия изменения климата. Рассматриваются основные факторы, влияющие на ухудшение экологической ситуации, а также меры государства по модернизации ирригационных систем, внедрению водосберегающих технологий, развитию «зелёной экономики» и смягчению последствий Аральской катастрофы. Особое внимание уделено международным инициативам Узбекистана и стратегии устойчивого развития.

Ключевые слова: Экология, Новый Узбекистан, водный дефицит, изменение климата, загрязнение воздуха, Аральская катастрофа, экологическая безопасность, зелёная экономика, экологическая политика, устойчивое развитие, водосберегающие технологии, мониторинг окружающей среды.

ENVIRONMENTAL CHALLENGES AND SOLUTIONS IN NEW UZBEKISTAN: WATER SCARCITY, AIR POLLUTION, AND THE ARAL SEA CRISIS

Annotation. The article examines key issues of environmental security in the context of New Uzbekistan, focusing on water scarcity, air pollution, the Aral Sea crisis, and the impacts of climate change. It analyzes the main factors contributing to environmental degradation and highlights state measures aimed at modernizing irrigation systems, expanding water-saving technologies, promoting the "green economy," and mitigating the consequences of the Aral Sea disaster. Special attention is given to Uzbekistan's international initiatives and its strategy for sustainable development.

Keywords: Ecology, New Uzbekistan, water scarcity, climate change, air pollution, Aral Sea crisis, environmental security, green economy, environmental policy, sustainable development, water-saving technologies, environmental monitoring.

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning barcha sohaları qatori ekologik xavfsizlik tizimini ham tubdan yangilashga qaratildi. Iqlim o'zgarishi, cho'llashish, suv tanqisligi, havoning ifloslanishi, aholi sonining ortishi va sanoatning kengayishi kabi omillar ekologik muammolarni yanada keskinlashtirmoqda. Shu munosabat bilan Yangi O'zbekiston sharoitida ekologik siyosatni takomillashtirish, tabiatni muhofaza qilish va aholining ekologik madaniyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Statistik taxminlarga ko'ra, 2030-yilga borib O'zbekistonda yiliga 7 milliard kub metr, 2050-yilda esa 15 milliard kub metr suv tanqisligi yuzaga keladi. Bu holat iqlim o'zgarishi, daryolarning sathi pasayishi va transchegaraviy suv resurslariga yuqori qaramlik bilan bog'liq. Sirdaryo va Amudaryodagi suv hajmi so'nggi 50 yilda 20 foizga kamaygan. Afg'onistonda qurilayotgan Qo'shtepa kanali esa Amudaryodan O'zbekistonga keladigan suvni yanada qisqartirishi taxmin qilinmoqda. Suv taqchilligining asosiy sababi qishloq xo'jaligida suvdan samarasiz foydalanishdir. Sug'oriladigan yerlarning atigi 15 foizida tomchilatib yoki yomg'irlatib sug'orish kabi suv tejovchi texnologiyalar joriy etilgan, irrigatsiya tizimlarida esa har yili 14 milliard kub metr suv isrof bo'ladi. Bu O'zbekistonda suvdan oqilona foydalanish borasida katta zaxiralar mavjudligini ko'rsatadi. Yuqori artezian qatlamlaridan haddan tashqari suv olish ham ichimlik suvi tanqisligini kuchaytirmoqda. 2023-yilda yerosti suvlari pasayib ketgani sababli ayrim hududlarda quduq burg'ulashga moratoriy joriy etildi.

Suv inqirozini yumshatish maqsadida O'zbekiston hukumati "favqulodda suvni tejash rejimi"ga o'tmoqda. 2024-yil "kanallarni betonlash bo'yicha zarbdor yil" deb e'lon qilindi va shu orqali yuz millionlab kub metr suv tejashga erishildi. Fermer xo'jaliklari ham ichki tarmoqlarni betonlash va tomchilatib sug'orishga o'tishni jadallashtirmoqda. Davlat tomonidan subsidiya, imtiyozli kreditlar va soliq yengilliklari berilmoqda. Biroq suv narxining pastligi fermerlarda suvni tejashga to'laqonli rag'bat yaratmayapti. Shuning uchun suv solig'ining qayta ko'rib chiqilishi, suv tejovchi texnologiyalarni yanada ommalashtirish va irrigatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish suv taqchilligi muammosining asosiy yechimlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonning yirik shaharlari, ayniqsa Toshkent, so'nggi yillarda atmosferaning keskin ifloslanishi bilan bog'liq jiddiy ekologik muammolarga duch kelmoqda. 2022-yilgi xalqaro baholashlarga ko'ra, Toshkent havosi "yomon sifatli" toifaga kiritilgan bo'lib, ifloslanishning asosiy manbalari sifatida avtomobil transporti va sanoat korxonalari qayd etilgan.

Shaharda transport vositalari sonining keskin ortishi va issiqlik elektr stansiyalarida yoqilg'i sifatida ko'mir va mazutdan foydalanilishi ifloslanish jarayonlarini kuchaytirmoqda.

2023-yilgi monitoring natijalari shuni ko'rsatadiki, Toshkent havosidagi zararli moddalar miqdori yiliga 8–10 foiz atrofida o'smoqda. PM2.5 (mayda chang zarrachalari) bo'yicha ko'rsatkichlar esa 2020–2021 yillarda JSST me'yorlaridan 2,5 baravar yuqori bo'lgan. PM2.5 inson o'pkasiga chuqur kirib boradigan xavfli zarracha bo'lib, uning yuqori konsentratsiyasi nafas olish, yurak-qon tomir, allergik kasalliklar va hatto erta o'lim xavfini oshiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ifloslangan hududlarda bronxit, astma, yurak xastaligi kabi kasalliklar sezilarli darajada ko'paymoqda.

Havoning ifloslanishi faqat Toshkentda emas, balki boshqa yirik sanoat shaharlari va tog'-kon hududlarida ham kuzatilmoqda. Farg'ona vodiysi, Navoiy, Angren va Olmaliq shaharlari atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar, sanoat chiqindilari, ko'mir yoqilg'isidan foydalanish va qayta ishlash tizimining sustligi tufayli muntazam ravishda yuqori ifloslanish zonasi sifatida qayd etilmoqda.

Ayniqsa, Olmaliq kon-metallurgiya majmuasi, Angren ko'mir konlari, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi hamda Navoiydagi yirik sanoat obyektlari ekologik yuklamani keskin oshiradi.

Shaharlar infratuzilmasining jadal rivojlanishi, aholining ko'payishi va avtomobillar sonining ortishi bilan bir qatorda, chiqindilarni qayta ishlash tizimining yetarli darajada takomillashmaganligi, yashil hududlar qisqarishi, qurilishlarning ko'payishi ham havoning ifloslanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayrim hududlarda shamollatish yo'laklarining torayishi va notog'ri shaharsozlik ham iflos havo massalarining to'planishiga olib keladi.

Atmosferaning ifloslanishidan eng ko'p zarar ko'ruvchi qatlam — aholi salomatligidir.

Mutaxassislarning fikricha, iflos havo bilan bog'liq kasalliklar O'zbekistonda yil sayin ortmoqda. Nafas olish tizimi kasalliklari, yurak-qon tomir xastaligi, allergik reaksiyalar va bolalar sog'lig'idagi ko'rsatkichlar havoning sifati bilan bevosita bog'liq. Bu esa ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni jadallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Orol fojiasi — Markaziy Osiyoda XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan eng yirik ekologik inqiroz bo'lib, Amudaryo va Sirdaryo suvlarining keskin kamayishi natijasida Orol dengizining qisqarib borishi bilan bog'liq global muammo hisoblanadi. Yangi O'zbekiston sharoitida Orolbo'yi hududi ekologiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qayta ko'rilmogda. Dengizning qurib borishi tufayli chang-qum bo'ronlari kuchayib, tuproq sho'rlanishi, ichimlik suvi tanqisligi, aholi salomatligining yomonlashuvi va iqtisodiy faollikning pasayishi kabi omillar mintaqada og'ir ijtimoiy-ekologik oqibatlar keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Orolbo'yi hududida keng ko'lamli tiklash ishlarini olib bormogda: dengizning qurigan tubida millionlab gektar maydonda yashil hududlar barpo qilinmogda, "Yashil makon" loyihasi doirasida o'rmonzorlar yaratilib, ekologik migratsiya va ijtimoiy himoya masalalariga davlat darajasida e'tibor kuchaytirilgan. O'zbekiston tashabbusi bilan BMT rezolyusiyalari qabul qilinib, Orolbo'yi xalqaro ekologik innovatsiya hududiga aylantirilgan. Yangi O'zbekistonning ekologik strategiyasi Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, hududning barqaror rivojlanishini ta'minlash va global ekologik xavfsizlikka hissa qo'shishga qaratilgan.

O'zbekistonning yirik shaharlarida, ayniqsa Toshkentda havoning ifloslanishi ortib borayotgani ekologik xavfsizlik uchun jiddiy muammo bo'lib qolmogda. Muammoni hal qilish uchun eng avvalo transport va sanoat sohasida modernizatsiyani jadallashtirish zarur. Eski avtomobillarni qisqartirish, ekologik talablarga javob beradigan dvigatellarni joriy etish, jamoat transportini kengaytirish va elektromobillar ulushini oshirish havoga chiqariladigan zararli moddalarning kamayishiga xizmat qiladi. Sanoat korxonalarida gaz-tozalash qurilmalarini o'rnatish, ko'mir yoqilg'isini bosqichma-bosqich qisqartirish, toza energiya manbalariga o'tish ham muhim omillardandir. Shaharsozlikda yashil hududlarni kengaytirish, daraxt ekish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini yaxshilash va ekologik monitoringni kuchaytirish havoning sifatini yaxshilashda asosiy yo'nalish bo'lib qolmogda. Aholi orasida ekologik madaniyatni oshirish, havo sifati bo'yicha ochiq ma'lumotlarni taqdim etish, maktab va oliy ta'limda ekologiya faniga e'tibor kuchaytirilishi ham umumiy natijaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu chora-tadbirlarning uyg'un amalga oshirilishi havoning ifloslanishini kamaytirish va sog'lom yashash muhitini shakllantirishga yordam beradi.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida qilgan nutqida global hamjihatlik, o'zaro ishonch va konstruktiv hamkorlik bugungi murakkab davrning asosiy omili ekanini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan “Samarqand birdamlik tashabbusi” ham mamlakatlar oʻrtasida umumiy xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yoʻlida masʼuliyatni oshirishga qaratilgani bilan eʼtiborlidir.

Nutqda Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar, xususan, ekologiya, iqlim oʻzgarishi, atrof-muhit muhofazasi hamda “yashil iqtisodiyot”ga oʻtish jarayonlari alohida qayd etildi. Orol dengizi fojiasi oqibatlarini yumshatish, iqlim oʻzgarishiga moslashish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, choʻllanish va qurgʻoqchilikka qarshi kurashish boʻyicha Oʻzbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan ulkan ishlar xalqaro yordam va hamkorlik bilan hamohang ravishda olib borilmoqda.

Mamlakatda 2030-yilgacha “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi, energiya samaradorligini oshirish dasturlari, issiqxona gazlarini 40 foizga qisqartirish boʻyicha strategiyalar qabul qilingan.

Orolboʻyi hududini tiklash doirasida millionlab gektarda oʻrmonzorlar barpo etildi va bu ishlar keng koʻlamda davom etmoqda. Shuningdek, ahamiyatli energetika loyihalari – quyosh va shamol elektr stansiyalari, yashil vodorod ishlab chiqarish, mikro-GEs lar qurilishi, xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlik alohida oʻrin tutadi.

Prezident nutqida iqlim oʻzgarishiga mintaqaviy va global darajada qarshi kurashish zarurligi, Markaziy Osiyo muzliklarining qisqarishi, suv tanqisligi kuchayishi, ekstremal ob-havo hodisalarining koʻpayishi kabi xavflarga jiddiy eʼtibor qaratildi. Shu bois Oʻzbekiston “Markaziy Osiyo iqlim muloqoti”ni yoʻlga qoʻyish hamda BMT doirasida global rezolyusiya qabul qilish tashabbusini ilgari surdi. Nutqning asosiy mazmuni shundan iboratki, iqlim oʻzgarishi, ekologik inqirozlar, suv tanqisligi va boshqa dolzarb muammolarni faqat birgalikdagi saʼy-harakatlar, oʻzaro ishonch va xalqaro hamkorlik bilangina samarali hal etish mumkin.

Oʻzbekiston bu borada BMT institutlari va barcha davlatlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni chuqurlashtirishga tayyor ekanini yana bir bor namoyon etdi.

Yuqorida bayon etilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, Yangi Oʻzbekiston sharoitida ekologik barqarorlik masalasi davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylangan. Iqlim oʻzgarishi, suv tanqisligi, havoning ifloslanishi, Orolboʻyi fojiasi kabi omillar nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy tahdid tugʻdirmoqda.

Aholi salomatligi, qishloq xoʻjaligi samaradorligi, sanoatning barqaror rivoji va hududiy xavfsizlik bugungi ekologik jarayonlardan bevosita taʼsirlanmoqda. Davlatimiz tomonidan suv resurslarini tejash, kanallarni betonlash, zamonaviy sugʻorish texnologiyalarini joriy etish, sanoatda ekologik talablarni kuchaytirish, “yashil energetika”ni rivojlantirish, millionlab gektarlarda oʻrmonzorlar barpo etish kabi keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani ekologik xavflarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Orolboʻyi hududida yashil maydonlar yaratish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va hududni xalqaro ekologik innovatsiya markaziga aylantirish boʻyicha tashabbuslar Oʻzbekistonning global ekologik muammolarni hal qilishga faol hissa qoʻshayotganini koʻrsatadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasidagi nutqida ilgari surilgan “Samarqand birdamlik tashabbusi”, global iqlim tahdidlariga qarshi mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish, “Markaziy Osiyo iqlim muloqoti”ni yoʻlga qoʻyish kabi takliflar xalqaro miqyosda keng eʼtirof topmoqda. Bu esa Yangi Oʻzbekistonning ekologik diplomatiya sohasida faol, masʼuliyatli va tashabbuskor davlat sifatidagi rolini mustahkamlamoqda.

Umuman olganda, ekologik siyosatni yanada takomillashtirish, ilm-fan va innovatsiyalarni ekologik boshqaruvga tatbiq etish, aholi ekologik madaniyatini oshirish hamda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish O'zbekistonning kelajakdagi ekologik barqarorligini ta'minlashning asosiy omillaridir. Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavflarni kamaytirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim poydevor vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. 2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. 21-aprel 2017-yil, Toshkent.
3. Qayumov A.A., Raxmonov R.N., Egamberdieva L.SH., Xamroqulov J.H. Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish. – T.: "Iqtisodiyot", 2014.
4. Nigmatov A.N. ekologiyaning nazariy asoslari. ekologiya va atrof muhit Muhofazasi ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma. - mas'ul muharrir b.f.d. A.S.Yuldashev — T., 2013.
5. Erkin o'g'li, J. M. (2023). TOPONOMIKANING ASOSIY BO'LIMLARI VA ULARNING TARIX UCHUN AHAMIYATI. *Better Intellektual tadqiqotlar*, 9 (2), 121- 125.
6. Jumayev, M. (2024). SURXONDARYO VILOYATIDAGI BA'ZI TOPONIMLAR VA ULARNING TAHLILI. *Modern Science and Research*, 3(12), 953-955.
7. Jumayev, M. (2023). Sources of Historical Names and Scientific Basis of Study. *Modern Science and Research*, 2(10), 568-576.
8. Jumayev, M. (2023). TARIXIY NOMLARNING MANBALARI VA TA'LIQNING ILMIY ASOSLARI. *Zamonaviy fan va masofa* , 2 (10), 568-576.